

HORIJIY TAJRIBALARINI TATBIQ ETISHNING TA`LIM SAMARADORLIGIDAGI AHAMIYATI

Abdulazizova Kamola Abdurazzoq qizi
Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

Annotatsiya : Ushbu maqolada Oliy ta`lim tizimidagi olib borilayotgan bugungi kundagi islohotlar va amalga oshirilgan ishlar yoritilgan bo`lib, aynan horijiy tajribalar tatbiq etish masalasidagi yutuqlar va o`ziga hosliklar yoritilgan. Qiyosiy pedagogikaning ta`lim yutuqlari va ta`lim sifatidagi ahamiyatiga urg`u berilgan.

Kalit so`zlar: Oliy ta`lim, fan, ishlab chiqarish, ta`lim sifati, dual ta`lim, Investitsiya, innovatsiya.

Talim , fan va izlanish olib borish chegara bilmaydi, balki eng yangi bilim va ko`nikmalarni ulashish orqali insoniyatni taraqqiyotga yetaklaydi, bir nechta xalqlar taqdiriga daxldor bo`lgan muammolarga birgalikda yechi toppish orqali mamlakatlar orasidagi do`stlik va hamkorlik rishtalarini mustahkamlaydi.

O`zbekiston respublikasi mustaqillikaa erishganidan so`ng barcha jabhalarda bo`lgani kabi ta`lim va fan sohasida ham turli hildagi yangilanishlar olib borilmoqda. Davrlar o`zgaraveradi, unga mos ravishda taraqqiyot o`zanlari ham. Biroq insoniyat oldidagi asosiy missiya bo`lgan izlash-topish –qo`llash amaliyoti hech qachon eskirmaydi. Insonlar savollar ichida yashaydi, biriga javob topilishi bilan keyingisi ko`ndalang turadi. Albatta, yechimlar o`z-o`zidan kelinmaydi, buning uchun izlaniladi, kitoblar varaqlaniladi, ma`lumotlar to`planilib tahlil qilinadi. Bu esa butun bashariyat ilm fanga muhtojligini anglatadi. Chunki, savollardan iborat olamda yashab bo`lmaydi, qayerdadir ularga yechim topilishi shart. Hozirga qadar olimlar nafaqat yer sayyorasi, balki koinotdagi o`nlab jumboqlarga yechim topdi, sirli hodisalarning sabab va oqibatlarini tahlil qildi, tushuntirdi. Ammo mo`jizalardan iborat biz yashayotgan hayotda bilmaganlarimiz bilganlarimizdan ko`p.

Sharq faylasufi Konfutsiy “Bilimsizlik insoniyat uchun eng qorong’u tundir” degandi. Haqiqatdan ham bilim ilm olish baxtga erishish farovon farovon yashshning sanalgan yoli oltin kalitidir.Bu jarayonning to`g`ri va tizimli tashkil etilishi esa bevosita ta`lim xususan oliy talim tizimiga unda boy korsatayotgan islohotlarga bog’liq.

Bilim olish taraqqiyotning bosh omilidur.Xadisi sharifda xam “Avvalo olim bo`l, laoqal ta`lim oluvchi yoki tinglovchi ilmu ulamoni sevuvchi bo`lgan” deyiladi. Bunday da`vat har birimizni ta`lim olish va ilmli insonlarni qadrlashga undab turadi.Qayerda ilmu ma`rifat kuchli bo`lsa osha yer baxt maskani hisoblanadi. Uchinchi renesansga kuchli bilim va tafakkur orqali erishilishini muhtaram Prezidentimiz ko`p bora ta`kidlaganlar.Shuning uchun uzlusiz ta`lim tizimining barcha bosqichida yoshlarni bilimli va yetuk inson sifatida rivojlantirish biz ziyolilarning asosiy burchimizdir.

Endi bevosita tizimda amalga oshirilgan va oshirilayotgan yangiliklarga to'xtalsak. Bunga kelib respublikada oliy ta'lif muassasalarini soni 200 ga yaqinlashdi. Yoshlarni oliy ta'lif bilan qamrov darajasi sezilarli darajada oshdi. Amalga oshirilayotgan islohotlar yangidan-yangi imkoniyatlar eshigini ochmoqda. 2021 yildan buyon oliy ta'lif muassasalariga kredit-modul tizimi to'liq tatbiq etildi. Uning joriy qilinishi bilan jahon oliy ta'lifiga integrasiyalashuvimiz boyicha katta qadam tashlandi. Elektron ta'lif keng ko'lamda joriy etilmoqda.

Xozirgi kunda oliy ta'lif muassasalarida 40mingga yaqin professor-o'qituvchilar faoliyat olib bormoqda. Joriy o'quv yilida 4582 nafar chet tili boyicha sertifikatga ega yoshlar magistratura bosqichiga qabul qilindi. Bunday yoshlar oliy talim muassasalari uchun munosib pedagogik kadrlar zahirasi bolib xizmat qiladi. Professor-o'qituchilarni maqomini hisobga oshirish ularning jamiyatdagi obro'sini yaxshilash borasida kop ishlar qilindi.

So`nggi yillarda yurtimiz oliy ta'lif tizimida sodir bolayotgan muhum o`zgarishlardan biri bu- horijiy tajribalarni mamlakatimizga tatbiq etishdir. Aynan bu yo`nalish qizqa muddat ichida yosh mutaxassisda qimmatli tajriba va ko`plab professional ko`nikmalar bilan birga akademik darajada va kasbiy malakaga ega bolish imkonini beradi. Bunga misol qilib dual ta`limni keltirishimiz mumkin.

Malumki Germaniya mehnat bozorida ta`limning mazkur turi katta ahamiyatga ega. Kyoln Iqtisodiy taraqqiyotlar instituti tamonidan o'tkazilgan so`rovnama shuni korsatadiki, oliy ta'lif bitiruvchilari ko`pincha nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etishda qiynaladilar. Bu esa ta'lif va ishlab chiqarish korxonalari integrasiyasini kuchayishini taqozo etmoqda. Yevropada bu borada qator muvaffaqiyatli islohotlar olib borilmoqda.

Germaniyada dual talim tizimi 50 yil davomida muvaffaqiyatli amalga oshirib kelinmoqda. Bu tizim qator Yevropa mamalakatlari shuningdek Xitoy Indoneziya Kolumbiya Ekvador va Peru kabi davlatlarda ham qabul qilingan. Bugungi kunda amaliyotga yo`naltirilgan ta`limning afzalliklari dunyoning ko`plab mamlakatlarida kasb-xunar ta`limi loyihalari uchun innovatsion tanlovni boshlagan Germaniya iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot federal vazirligi alohida qayd etgan.

Bundan tashqari bugungi kundagi aynan horijiy tajribalarga asoslangan kredit – modul tizimi ham aynan ta'lif tizimini eng yuqori bosqichga ko`tarishga asos yaratdi. Ta'lif sifatini taminlash ustuvor vazifa. Yetishtirilayotgan kadrlar har jixatdan raqobatga tayyor bo`lishi kerak. O'quv jarayonida talim sifatini taminlash omillari hisobga olinmoqda. Birinchidan meyoriy-xuquqiy xujjatlar takomollashmoqda. O'quv jarayoning asosiy xujjati bolgan o'quv rejalaridagi fanlarning soni qisqartirildi, mutaxassislik fanlarini chuqur o`rgatishga e'tibor qaratildi. To`rt yil davomida talaba 240 kredit toplasa boldi. Bunda belgilangan fanlarni talab darajasida o`zgartirishi yetarli. Ikkinchidan professor o'qituvchilar ortiqcha qog`ozbozlikdan xoli bolishdi, barcha jarayonlarning elektron tartibi yo`lga qoyildi, ularning faoliyatiga aralashuvlar cheklandi. Bu esa o`ylaymanki, ta'lif sifatini ijobjiy yo`l bilan yuqori darajaga ko`tarishga yana bir omil bo`ldi.

Bugungi kundagi globallashuv barcha sohalar kabi ta`limning negizi hisoblangan mактабгача та`lim sohasida ham amalga oshirilmoqda. Dunyoning narigi chetida joylashgan biror bir mактабгача та`lim muassasasida paydo bo`lgan ta`limga o`зgacha yondashuv osonlikcha tarqalib, butun dunyoga keng yoyilmoqda ba amaliyotga joriy etilmoqda. Ya`ni kechagi yangilik bugungi kun uchun yangilik bo`lmay qolgan. Shu nuqtai nazardan olib qaraydigan bo`lsak, aynan horijiy tajribalarni ham aynan sifatli va mukammalini та`lim tizimiga tatbiq etish orqali raqobatbardosh kadrlarni eng kichik negizdan boshlab tayyorlashga erishishimiz mumkin ekan. Bu esa aynan та`lim tizimidagi uzlusizlikka ham o`zining ijobiylari та`sirini ko`rsatishi aniq.

Har bir sohani o`z taraqqiyot yo`li bor. Bunda tajribalar, davlatlar, soha harakatini та`minovchi ishtirokchilar, ularning tili, millatu mentalitetiga qarab turlicha shakllanadi. Amalda qo`llanilganlarning barchasi ham omadli omadli bo`lavermaydi. Ularda samara va samarasizlik koeffitsienti yonma-yon yuradi. Ammo, tahlil, o`rganish, taqqoslash kabi induktorlar ham borki, ular qilinajak yangiliklar muvafaqqiyatini 70 foizga bo`lsada kafolatlaydi. Shuning uchun butun dunyo tajribalarini sinchiklab o`rganish va tahlil qilish va shu asosda yangi bilimlar yaratish doimo oldinda turadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O`zbekiston Respublikasi qonuni, 23.09.2020 yildagi O`RQ-637-SON
2. O`zbekiston respublikasi prezidentining 08.10.2019-yildagi PQ-5847- son farmoni
3. . Jahon falsafasi tarixidan lavhalar / Nazarov Q. tahriri ostida. -Toshkent: Sharq, 2005.
4. Jervolino D. Paul Ricouer: une hermeneutique de la condition humaine / D. Jervolino. P., 2003.
5. www.wikislovar.ru
5. Юнусов, М. М., Бахромова, Б. Х., & Мирзошарипова, М. Ш. (2022). ФАРГОНА ВОДИЙСИ ЧўЛ, ТОҒ, АДИРЛИКЛАРИДАГИ БИТОПЛАРДА УЧРОВЧИ ЎРГИМЧАКЛАР РЎЙХАТИ ВА УЛАРНИНГ СИСТЕМАТИК ТАҲЛИЛИ. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(6), 223-229.
6. Мирзошарипова, М., & Ахмаджонова, С. Ш. (2022). ЎРГИМЧАККАНАНИНГ БИОЭКОЛОГИК ХУСУСИЯТЛАРИ. О'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(13), 707-711.
7. Mirzosharipova, M. S. (2023). TUYAQUSHLARNING KASALLIKLARI VA TUYAQUSHCHILIK SIRLARI. Solution of social problems in management and economy, 2(6), 70-73.

8. Ma, M. (2022). TUYAQUSHLARNING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARINI O'ZIGA XOSLIGI. IJODKOR O'QITUVCHI, 2(24), 317-323.